

# O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda uning tizim tashkilotlari tomonidan 2024 yil davomida amalga oshirilgan ishlari

**2024 yil** davomida texnik jihatdan tartibga solish, muvofiqlikni baholash, metrologiya va standartlashtirish sohalarida bir qator **amaliy ishlar amalga oshirildi**.

**Birinchidan**, **2024 yilda** sohani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash borasida **20 ga** yaqin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qarorlari qabul qilindi.

**Ikkinchidan**, **2024 yilda** mahalliy eksportbop mahsulotlarga taalluqli **1 739 ta xalqaro va Yevropa standarti qabul qilindi**.

**373 ta** – to'qimachilik, charm-poyabzal, **202 ta** – elektrotexnika, **247 ta** – qurilish, **339 ta** – oziq-ovqat, **348 ta** – kimyo va **230 ta** – boshqa sohalar.

Natijada, milliy standartlarning xalqaro standartlar bilan uyg'unlashish darajasi **24,7 foizdan 30,6 foizga yetkazildi**.

**Uchinchidan**, **Jahon savdo tashkiloti talablariga mosligi** bo'yicha **2 668 ta (104%)** standartlarning qayta ko'rib chiqildi.

**To'rtinchidan**, **Latviya, Koreya, Xitoy, Slovakiya** davlatlari, Germaniyaning **PTB**, Koreyaning **KOICA**, Turkiyaning **TIKA** tashkilotlari, Xalqaro savdo markazi (**ITC**), Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasi (**IEC**), Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (**ISO**), Islom mamlakatlarining standartlar va metrologiya instituti (**SMIIC**) bilan **hamkorlik to'laqonli yo'lga qo'yildi**.

**Beshinchidan**, **Global sifat infratuzilma indeksi (Global Quality Infrastructure Index (GQII))** reytingidagi yuqori **50 ta** davlatning **11 tasi (AQSh, Angliya, Yaponiya, Argentina, Turkiya kabi)** bilan ikki tomonlama manfaatli hamkorlikga qaratilgan **hujjatlar imzolandi**.

**Oltinchidan**, Texnik qo'mitalar faoliyati qayta ko'rib chiqilib, **18 ta** texnik qo'mita qaytadan tashkil etilib ularning soni **32 taga maqbullashtirildi**. Shuningdek, Xalqaro standartlashtirish tashkilotlarining (**ISO, IEC**) texnik qo'mitalaridagi a'zolar soni **256 taga (17 ta to'laqonli, 239 ta kuzatuvchi)** yetkazildi.

**Yettinchidan**, Xalqaro standartlarni joriy qilingan korxonalar sonini **10 barobarga** oshirib va ular sonini **5 mingtaga** yetkazish maqsadida, **2024 yilda** rejalashtirilgan **1 200 ta** mahalliy korxonadan **1 358 ta (113%)** korxonada sifat menejmenti tizimlari joriy etildi.

**Sakkizinchidan**, O'zbekiston Markaziy Osiyoda **ikkinci bo'lib** vaqt va chastota xizmati muvofiqlashtirilgan **universal vaqt** UTCni shakllantirishda Xalqaro atom vaqtiga (**TAI**) **guruhiga a'zo bo'ldi**, natijada O'zbekiston o'zining **milliy vaqt shkalasiga** ega bo'ldi.

**To'qqizinchidan**, KOOMYeT prezidentligi saylovi o'tkazilib, unda **ilk bor** O'zbekiston vakili, O'zbekiston milliy metrologiya instituti direktori KOOMYeT prezidenti lavozimiga tasdiqlandi.

**O'ninchidan**, metrologiya sohasini an'anaviy etalon foydalanuvchisidan – **etalon ishlab chiqaruvchisiiga** transformatsiya qilish maqsadida **4 ta texnik** yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda **7 ta** etalon va yuqori aniqlikdagi o'lhash vositalarini yaratish ishlariga start berildi.

**O'nbirinchidan**, KOOMYeTning 1.6 "Massa va unga bog'liq kattaliklar", 1.10 "Termometriya va termofizika" hamda 1.9 "Ionlashtiruvchi nurlanishlar va radiofaollik" **Texnik qo'mitalarining navbatdagi yig'ilishlari** **ilk bor** O'zbekistonda o'tkazildi.

**O'nikkinchidan**, Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash bo'yicha davlatlararo kengashi (MGS)ning "Luchshiy molodoy metrolog MGS SNG **2024**" xalqaro pilot tanloving "Luchshiy molodoy metrolog MGS SNG **2024** v sfere prakticheskoy metrologii" nominatsiyasida institutning mutaxassislari I va III darajali g'olib sifatida e'tirof etildi.

**O'nuchinchidan**, Koreya Texnologiya va standartlar agentligi (KATS) va Koreya standartlari assotsiatsiyasi (KSA) tomonidan standartlarni tushunishni osonlashtirish va ularning ahamiyatini keyingi avlodga singdirish maqsadida 2024 yil 12-14 avgust kunlari Koreyaning Seul shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro standartlar olimpiadasida **ilk bor** O'zbekiston vakillari ishtirok etib **bitta oltin** va **bitta kumush** medal olib qaytdi.

**O'nto'rtinchidan**, Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosining (*BIPM*) bazasida ilk bor Respublikamizning jami **5 ta** kalibrlash va o'lhash imkoniyatlari to'g'risidagi yozuvlari (*SMS-qatorlar*) ro'yxatga olindi.